

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING YOSH PSIXOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TAHLILI

Jo'rayeva Nilufar Ne'matullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20065322>

Annotatsiya. Mazkur tezisda ta'lim va tarbiya jarayonining yosh psixo-logiyasi nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Unda tarbiya va ta'lim tushunchalarining mazmuni ochib berilib, ularning shaxs rivojlani-shidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, turli yosh bosqichlarida, xususan, ilk bo-lalik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi hamda o'smirlik davrlarida ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yosh psixologiyasi, ta'lim, tarbiya, psixologik xususiyatlar, ilk bolalik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, o'smirlik, shaxs rivojlanishi, pedagogik yondashuv, individual yondashuv, ta'lim jarayoni, tarbiya jarayoni

Yosh avlodni kamol toptirish jarayoni o'zida bir qator muhim pedagogik va psixologik omillarni mujassam etadi. Ushbu jarayonda ayniqsa ta'lim va tarbiya yetakchi o'rin egallab, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir». Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar yetakchi o'rin tutmog'i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat)¹. Ta'lim esa shaxs rivojining yana bir asosiy yo'nalishi bo'lib, u orqali insonda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishdir. Ta'lim bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishidir. Bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Ta'lim jarayoni nafaqat axborot berish, balki fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul

¹Do'stmuhamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G., Ziyavitdinova G. Umumiy psixologiya (2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2020 (darslik). (290-b)

qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ta'lim shaxsning intellektual salohiyatini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tarbiya va ta'lim o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir. Ular bir-birini to'ldiradi va yagona maqsad — har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya ta'limga ma'naviy-axloqiy yo'nalish bersa, ta'lim tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu sababli bu ikki jarayonni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liqlikda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonini yosh psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, inson rivojlanishi har bir yosh bosqichida o'ziga xos psixik xususiyatlar bilan kechadi va bu jarayonni hisobga olish pedagogik faoliyat samaradorligini belgilaydi. Boshqacha aytganda, ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Xususan, ilk bolalik davri (1–3 yosh) va maktabgacha yosh davri (3–6 yosh)² ta’lim-tarbiya jarayoni nuqtai nazaridan o’ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ilk bolalik davrida bolaning psixik rivojlanishi juda tez kechadi, biroq u asosan kattalarga to’liq bog’liq bo’ladi. Bu bosqichda nutq endi shakllanib boradi, idrok va harakat faoliyati yetakchi o’rinni egallaydi. Bola atrof-muhitni ko’proq sezgi va bevosita harakatlar orqali o’zlashtiradi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayoni asosan kundalik muloqot, takroriy harakatlar va kattalarning bevosita namunasiga tayanadi. Bu yoshda ko’rsatma aniq, qisqa va sodda bo’lishi, tarbiyaviy ta’sir esa ko’proq emotsional bog’liqlik orqali amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida esa bola psixik rivojlanishida sezilarli o’zgarishlar yuz beradi. Nutq faol rivojlanadi, tasavvur va xotira kengayadi, obrazli fikrlash shakllanadi. Bu davrda o’yin yetakchi faoliyat turi sifatida namoyon bo’lib, bola o’yin jarayonida ijtimoiy rollarni o’zlashtiradi va atrof-dagi voqelikni modellashtiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ko’rgazmalilik, didaktik o’yinlar va ijodiy faoliyat muhim o’rin tutadi. Bola asta-sekin qoidalarga rioya qilishni, jamoada harakat qilishni va o’z xulqini boshqarishni o’rganadi. Taqqoslash shuni ko’rsatadiki, ilk bolalik davrida asosiy urg’u hissiy yaqinlik, takroriylik va bevosita harakatlarga qaratilsa, maktabgacha yoshda bilish faolligi, o’yin faoliyati va ijtimoiylashuv jarayoni ustunlik qiladi. Ilk davrda bola ko’proq individual tajriba orqali rivojlansa, keyingi bosqichda jamoaviy o’yin va muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik yondashuv ham farqlanadi: ilk

²G’oziyev E. “Ontogenez psixologiyasi: nazariy va eksperimental tahlil”. – Toshkent: Noshir, 2010.

bolalikda tarbiyachi va ota-ona asosiy model bo’lsa, maktabgacha yoshda tarbiyachi yo’naltiruvchi va tashkil etuvchi rolni bajaradi. Bu davrda bolada mustaqillik elementlari paydo bo’lib, u o’z faoliyatini sinab ko’rishga intila boshlaydi. Oldingi tahlillardan ko’rinadiki, bolalikning har bir bosqichi o’ziga xos psixologik tuzilma va rivojlanish dinamikasiga ega. Bu esa ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda nafaqat yosh farqini, balki shaxsning ichki imkoniyatlari va psixik yetilish darajasini ham hisobga olish zarurligini ko’rsatadi. Shuning uchun pedagogik ta’sir shakllari turli yosh davrlarida bir xil mazmunda bo’la olmaydi, ular rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda o’zgarib boradi. Mazkur fikrni yanada aniqroq ochib berish uchun kichik maktabgacha yosh davri bilan o’spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to’g’ri keladigan va yaroqli bo’lgan narsa, ko’pincha o’smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bo’lishi mumkin³. Chunki bu ikki yosh bosqichi psixik rivojlanish darajasi, ehtiyojlari, motivatsiyasi va ijtimoiy tajribasi bilan keskin farqlanadi. Kichik yoshdagi o’quvchilar ko’proq kattalarga tayanadi, ular uchun o’qituvchi obro’li shaxs bo’lib, uning ko’rsatmalari muhim yo’riqnoma vazifasini bajaradi. Bu davrda tashqi nazorat, aniq ko’rsatmalar, rag’bat va baholash samarali hisoblanadi, chunki bolalarda o’z-o’zini boshqarish hali to’liq shakllanmagan bo’ladi. O’smirlik davriga kelib esa vaziyat o’zgaradi: shaxsda mustaqillikka intilish kuchayadi, o’z “men”ini anglash jarayoni jadallashadi. Ular haddan tashqari nazoratni cheklov sifatida qabul qiladi va bu ichki qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin. Kichik yoshdagilar uchun samarali bo’lgan qat’iy tartib, ko’p hollarda o’smirlar uchun bosim sifatida namoyon bo’ladi. Shu sababli o’smirlar bilan ishlashda buyruqbozlikdan ko’ra, hamkorlikka asoslangan yondashuv, fikrini hurmat qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kichik maktab yoshidagi bolalarda o’yin va ko’rgazmalilik ustun bo’lsa, o’smirlar abstrakt tafakkurga ko’proq moyil

bo'ladi. Ular sabab-oqibat aloqalarini chuqurroq tahlil qila oladi, bahs-munozaraga kirishadi, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga harakat qiladi. Demak, bir yosh bosqichida samarali bo'lgan metod va vositalar boshqasida kutilgan natijani bermasligi tabiiy holatdir. Umuman olganda, yosh psixologiyasi ta'lim va tarbiya jarayonining muhim ilmiy asosini tashkil etadi. Har bir yosh bosqichining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olish, mos

³Do'stmuhamedova Sh. A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G., Ziyavitdinova G. Umumiy psixologiya (2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2020 (darslik).

metod va vositalarni tanlash, individual yondashuvni ta'minlash hamda psixologik qulay muhit yaratish pedagogik samaradorlikni oshiradi. Shu asosda tashkil etilgan pedagogik faoliyat o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini izchil ta'minlaydi. Natijada jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan va har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Do'stmuhamedova Sh. A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G., Ziyavitdinova G. Umumiy psixologiya (2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2020 (darslik).
2. G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi: nazariy va eksperimental tahlil". – Toshkent: Noshir, 2010.
3. Mamatqulov A. "Yosh davrlari psixologiyasi". – Toshkent: Sharq, 2015.
4. Karimova V.M. "Yosh psixologiyasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2010.